

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

GULYAMOVA DURDONA RUSTAM QIZI

**STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO‘LLANILADIGAN
GEMOSTATIK GEL VA POLIMER PLYONKANI STANDARTLASH**

15.00.02 – farmatsevtik kimyo va farmakognoziya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of doctor of philosophy dissertation (PhD)

Gulyamova Durdona Rustam qizi

Stomatologiya amaliyotida qoʻllaniladigan gemostatik gel va polimer plyonkani standartlash 3

Гулямова Дурдона Рустамовна

Стандартизация гемостатического геля и полимерной плёнки, применяемой в стоматологической практике 21

Gulyamova Durdona Rustamovna

Standardization of hemostatic gel and polymer film used in dental practice39

Eʼlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

Last of published works 42

**TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

GULYAMOVA DURDONA RUSTAM QIZI

**STOMATOLOGIYA AMALIYOTIDA QO‘LLANILADIGAN
GEMOSTATIK GEL VA POLIMER PLYONKANI STANDARTLASH**

15.00.02 – farmatsevtik kimyo va farmakognoziya

**FARMATSEVTIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.1.PhD/Far100 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent farmatsevtika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.pharmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusxodjayeva Nodira Abdulxamitovna
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponent

Yuldashev Zakirjon Abidovich
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Nishanbayev Sabir Zaripbayevich
Kimyo fanlari doktori, yetakchi ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 3 » oktabr soat 13⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38, faks: (99871) 256-45-04, e-mail: www.info@pharmi.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent farmatsevtika instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (59 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100015, Toshkent sh., Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy. Tel.: (99871) 256-37-38.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 10 » sentabr kuni tarqatildi.
(2024 yil « 10 » sentabr da 59 raqamli reyestr bayonnomasi)



K.S. Rizayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
t.f.d.

Y.S. Kariyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi
farm.f.d., professor

F.F. Urmanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Qoshidagi ilmiy seminar raisi, farm.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) stomatologik kasalliklar bo'yicha global hisobotida keltirilgan (2022 y) ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'ylab og'iz bo'shlig'i kasalliklari bilan kasallanganlar soni qariyb 3,5 milliard kishini tashkil etadi va ularning 3/4 qismi o'rtacha daromadli mamlakatlarda yashaydi. Shu munosabat bilan iqtisodiy jihatdan qulay bo'lgan dorivor o'simliklar xomashyosi asosida olingan dori vositalar va biologik faol qo'shimchalar assortimentini kengaytirish, ularni samaradorligi va bezararligini isbotlash, ishlab chiqarishga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda jahonda turli biologik faol moddalarni saqlagan dorivor o'simliklarni o'rganish, zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida kimyoviy tarkibini aniqlash, yot moddalardan tozalash, sifatini baholash usullarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tabiiy xomashyolardan, xususan dorivor o'simliklardan biologik faol moddalarni ajratib olish, ular asosida stomatologik kasalliklar (paradontit, gingivit, stomatit va b.)da keng qo'llaniladigan turli dori shakllari texnologiyasini ishlab chiqish, standartlash, turg'unligini ta'minlash masalalarini yechishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda farmatsevtika sohasini rivojlantirishda keng qamrovli islohotlar doirasida mahalliy dorivor o'simliklarni yetishtirish maqsadida plantatsiyalar tashkil qilish, ularni qayta ishlash, xorijiy analoglardan kam bo'lmagan dori vositalar va biologik faol qo'shimchalarni yaratish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ikkinchi ilovasi, 85-bandida «Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 baravar ko'paytirish va mahalliy bozorni ta'minlash darajasini 80%ga yetkazish....»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, respublikamizda mahalliy farmatsevtik ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi original preparatlar ishlab chiqarishni kengaytirish, aholi salomatligini saqlashda ozuqaga qo'shimchalar nomenklaturasini ko'paytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-yanvardagi PF-55-son «2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son «Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda 2020 yil 26 noyabrdagi PQ-4901-son «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularni urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot respublika fan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni

texnologiyalari rivojlanishining VI.«Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan mahalliy oʻsimlik xomashyolari asosida gemostatik va yalligʻlanishga qarshi taʼsirga ega dori vositalarini ishlab chiqish, zamonaviy usullar yordamida sifatini baholash, tarkibidagi terapevtik faollikka ega moddalarni aniqlash va farmakologik xususiyatini oʻrgangan holda tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish borasida ishlar olib borilgan. Xususan, ushbu sohaga X.X.Xolmatov, T.P.Poʻlatova, A.Y.Ibragimov, X.M.Komilov, A.Q.Saidvaliyev, Sh.Sh.Babadjanova, F.F.Urmanova, Z.A.Nazarova, Q.A.Ubaydullayev, S.N.Aminov, V.N.Abdullabekova, G.M.Tureyeva kabi olimlar oʻz xissalarini qoʻshgan.

Shuni taʼkidlash joizki, dunyo miqyosida bir qator olimlar, jumladan Y. Dan Kong, V. Duraypandiyani, I. Lajter, I.Zupkro, Y.Yang, Uncini Manganelli R.E., G.G. Nikolayev, M.V. Lavrenteva, O.V. Trineva, V.A.Kurkin, N.Sh. Kavtaradze, Y.S.Lapinskaya, Y. A. Korjavix, L.Yu.Ostrovskaya, M.P.Vasilyev, T.N.Melnikova, T.F.Marinina, Y.Yu.Simanovskaya, L.X.Savchenko, E.A.Balagozyan kabilarning dorivor oʻsimlik xomashyolaridan olingan fitopreparatlar tarkibidagi biofaol moddalarni oʻrganish, ularni standartlash usullarini ishlab chiqish borasida ilmiy izlanishlari ahamiyatga egadir.

Mazkur dissertatsiya ishi mahalliy qush toron, achchiq toron va ikki uyli gazanda oʻsimliklarining xomashyolaridan ogʻiz boʻshligʻi kasalliklarida qon toʻxtatish va yalligʻlanishga qarshi farmakologik taʼsirga ega «Gemostat» suyuq ekstrakti asosida olingan «Inflamdent» geli va polimer plyonka koʻrinishidagi BFQ ni standartlash boʻyicha birinchi ilmiy tadqiqot hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent farmatsevtika institutining «Mahalliy dorivor oʻsimliklar va koordinatsion birikmalar asosida original dori vositalarini ishlab chiqish va tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish» ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi hamda AL-422105573-sonli «Mahalliy dorivor oʻsimliklardan yangi avlod antimikrob va qon toʻxtatish xususiyatiga ega dori preparatlarni yaratish» amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy qush toron, achchiq toron va ikki uyli gazanda dorivor oʻsimlik xomashyolari asosida olingan gemostatik va yalligʻlanishga qarshi taʼsirga ega «Inflamdent» geli va polimer plyonka koʻrinishidagi BFQ ni standartlash hamda sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy dorivor oʻsimlik xomashyolaridan tarkib topgan suyuq ekstrakt asosida gemostatik va yalligʻlanishga qarshi taʼsirga ega yangi dori vositasi va BFQni ishlab chiqish va standartlashning maqsadga muvofiqligini asoslash;

«Inflamdent» gelining biologik faol moddalarini identifikatsiyalashning zamonaviy tahlil usullarini ishlab chiqish;

stomatologik polimer plyonka koʻrinishidagi BFQ ning asosiy taʼsir etuvchi moddalarini aniqlash hamda tegishli sifat meʼyorlarini belgilash;

ishlab chiqilgan «Inflamdent» geli tarkibidagi K₁ vitaminining miqdoriy tahlil usullarini ishlab chiqish va validatsiyalash;

«Inflamdent» geli va plyonka shaklidagi BFQ ning saqlanish muddatlarini o'rganish;

tavsiya etilayotgan «Inflamdent» gelini tibbiyotda qo'llash va ishlab chiqarishga ruxsat olish uchun me'yoriy hujjatlarni tayyorlash va O'zR SSV «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» davlat muassasasiga taqdim etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mahalliy achchiq toron, qush toron va ikki uyli gazanda dorivor o'simliklarining yer ustki qismidan ajratib olingan suyuq ekstrakt asosida ishlab chiqilgan «Inflamdent» geli va polimer plyonka ko'rinishidagi BFQ olingan.

Tadqiqotning predmeti mahalliy dorivor o'simliklar xomashyolaridan olingan suyuq ekstrakt asosidagi gel va polimer plyonkani chinligi va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, ularni spetsifikatsiyasini ishlab chiqish, miqdoriy tahlil usullarini validatsiyalash hamda tibbiyot amaliyotiga joriy etishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlar jarayonida zamonaviy fizik- kimyoviy tahlil usullari, jumladan, spektrofotometriya (SF), yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX), yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), yuqori samarali suyuqlik xromatografli mass-spektroskopiya (YuSSX-MS), induktiv bog'langan argon plazmasi bo'lgan ICP MS, klinikagacha bo'lgan izlanishlarda qo'llaniladigan usullar hamda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy achchiq toron, qush toron va ikki uyli gazanda o'simlik xomashyolaridan olingan suyuq ekstrakt asosidagi «Inflamdent» geli va polimer plyonkani sifatini nazorat qilish usullari ishlab chiqilgan;

«Inflamdent» geli tarkibidagi vitaminlar miqdorini aniqlash uchun ilk bor yuqori samarali suyuqlik xromatografli mass-spektroskopiya uslubi ishlab chiqilgan;

«Inflamdent» geli tarkibidagi aminokislotalarning chinligi va miqdorini aniqlash uchun yuqori samarali suyuqlik xromatografiya usuli ishlab chiqilgan;

«Inflamdent» geli uchun taklif etilgan miqdoriy tahlil usuli ICH Topic Q2 (R1) «Validation of Analytical Procedures: Text and Methodology» talablari bo'yicha validatsiya qilingan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

suyuq ekstrakt asosidagi «Inflamdent» gelining mo'tadil yaroqlilik muddati va saqlanish sharoitlari tabiiy eskirish usuli yordamida aniqlanilgan;

«Inflamdent» gelining gemostatik ta'siri «Gemostat» suyuq ekstraktidan kam emasligi intakt hayvonlarning jigaridagi parenximatoz qon ketish modelida aniqlangan hamda bezararligi isbotlangan;

«Inflamdent» polimer plyonka (BFQ) uchun me'yoriy hujjatlar «ALSAGE PHARMA» xususiy korxonasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan tahlil natijalarining ishonchlilik darajasi zamonaviy va hozirgi kunda keng qo'llanilib kelinayotgan matematik statistik tahlil usullar, fizik-kimyoviy (YuSSX, SF) tahlillar bilan belgilanadi. Ishlab chiqilgan tahlil usullari korxona laboratoriya sharoitlarida sinovdan o'tganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xorijiy analoglaridan kam bo'lmagan, yuqori terapevtik tasirga ega bo'lgan, mahalliy o'simlik xomashyolari asosida olingan «Inflamdent» geli Davlat farmakopeya talablari bo'yicha standartlash usullarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati «Inflamdent» geliga «DENTAFILL PLYUS» MChJ bilan hamkorlikda KFMning loyihasi ishlab chiqilib, tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish uchun O'zR SSV «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi» davlat muassasasiga topshirilganligi bilan izohlanadi va ushbu me'yoriy hujjatning tasdiqlanishi stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining assortimentini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan gemostatik gel va polimer plyonkani standartlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

«Inflamdent» geli uchun korxona farmakopeya maqolasi loyihasi O'zR SSV huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga ro'yxatdan o'tkazish uchun topshirilgan («Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasining 2024 yil 29 yanvardagi №41/11-1341-son xati, Sog'liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Ushbu KFMning tasdiqlanishi «DENTAFILL PLYUS» MChJ farmatsevtik korxonasi tomonidan stomatologik kasalliklarda qo'llaniladigan mahalliy dori vositasini ishlab chiqish imkonini beradi;

«Inflamdent» polimer plyonka ko'rinishidagi biologik faol qo'shimcha uchun Texnik shartlar (Ts 27326037–006:2023) hamda uni ishlab chiqarish bo'yicha Texnologik yo'riqnoma (TI 27326037–006:2023) O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan. Natijada og'iz bo'shlig'ining yallig'lanishini oldini olish va davolash uchun qo'llaniladigan BFQ ishlab chiqish imkonini bergan;

o'tkazilgan klinik oldi sinovlar natijasida “Inflamdent” gelining spetsifik farmakologik faolligi hamda o'tkir zaharli emasligi isbotlangan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2018 yil 15 oktyabrdagi 8n-3/280-son xati). Natijada ishonchli gemostatik faollikga ega bezarar dori vositasini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Stomatologiya amaliyotida dorivor o'simlik xomashyolari asosida olingan dori vositalarining tutgan o'rni*» deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili keltirilgan bo'lib, bunda dorivor o'simlik xomashyosi va ular asosida olingan fitopreparatlarni standartlashda xalqaro farmakopeya talablari, gel dori shaklini standartlashning o'ziga xosligi va zamonaviy usullar haqida ma'lumotlar hamda *Urtica dioica* L. (ikki uyli gazanda), *Polygonum hydropiper* L. (achchiq toron) va *Polygonum aviculare* L. (qush toron) o'simliklarining biologik faol moddalari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, polimer plyonkalarining tasnifi va zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi, stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalarining O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «*Qo'llanilgan xomashyo va tahlil usullari tavsifi*» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot materiallari, ob'yekti, suyuq ekstrakt asosida gel dori shakli va polimer plyonka biologik faol qo'shimchani olish usuli ilmiy asoslanib berilgan.


Dissertatsiyaning «*Inflamdent*» gelining kimyoviy tarkibini o'rganish» deb nomlanuvchi uchinchi bobida gel tarkibidagi biologik faol moddalarni zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullarida o'rganilish davomida olingan natijalar bayon qilingan. Bunda turli xil xromatografik usullar bilan bir qatorda SF usuli ham qo'llanilgan. Tadqiqotlarni avval ishlab chiqilgan dori shakllaridagi biologik faol moddalarni o'rganishdan boshlandi. «Inflamdent» geli tarkibidagi asosiy ta'sir etuvchi moddalardan biri bu flavonoidlar bo'lganligi sababli, ularni identifikatsiyalash uchun YuQX usulidan foydalanildi. 1-jadvalda foydalangan xromatografik sistemalar va olingan natijalar keltirildi.

1-jadval

«Inflamdent» geli tarkibidagi flavonoidlarni YuQX usulidagi tahlil natijalari

№	Namuna	Harakatlantiruvchi faza			
		toluol- (96%) etil spirti 3:2	n-butanol-sirka k-tasi- suv 10 : 3 : 7	etil efiri- toluol 2:8	etilatsetat- xloroform- metanol (8:1:1)
1	Rutin	0,44	0,52	0,16	0,42
2	Kvertsetin	0,70	0,70	-	
3	Gel eritmasi	0,43	0,51 0,70	0,15	0,44

Olingan natijalarga ko'ra, rutin, kvartsetin dog'larining Rf qiymatlari tegishli: 0,51 va 0,70 ga teng bo'ldi. Ishlab chiqilgan Inflamdent gelining tarkibidagi flavonoidlar miqdorini aniqlashning SF usuli ishlab chiqildi. Usul rutinga nisbatan alyuminiy xlorid bilan kompleks hosil qilishiga asoslangan.



1-rasm. Gelning UB spektri


2-jadval

“Inflamdent” geli tarkibidagi flavonoidlarni SF usulidagi tahlil natijalari va usulning metrologik tavsifi (n=5; P=95%; t(p,f)=2,78; f=4)


$X_i, \%$	$\bar{X}, \%$	F	S^2	S	S_x	$\pm \bar{\varepsilon}, \%$
$X_1=0,061$ $X_2=0,062$ $X_3=0,068$ $X_4=0,068$ $X_5=0,069$	0,068	4	0,00020	0,0141	0,00632	2,47

2- jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra gel tarkibida flavonoidlarni yig'indisi 0,068 % usulning o'rtacha nisbiy xatoligi esa 2,47 % tashkil qildi.


Flavonoidlarni chinligi va miqdorini chuquroq o'rganish maqsadida YuSSX usulidan foydalanildi. Rutin va kvartsetin flavonoidlarini aniqlashda quyidigicha sharoit tanlandi: xromatograf - Agilent Technologies (AQSh) YuSSXda olib borildi. Xromatograf Chemstation 09.03.a dasturiy ta'minot, gradiyent nasos va spektrofotometrik detektor bilan ta'minlangan. Bo'linish zarrachalar o'lchami 5 mkm bo'lgan Zorbax Eclipse C-18 sorbent bilan to'ldirilgan, 4,6×150 mm o'lchamdagi kolonkada amalga oshirildi. Qo'zg'aluvchi faza 0,3% fosfat kislota (A) va metanol (B), gradient rejimida bajarildi. YuSSX xromatogrammalari 2-4-raslarda keltirildi.



2-rasm. Rutin ISN xromatogrammasi




3-rasm. Kvartsetin ISN xromatogrammasi




4- rasm. “Inflamdent” gelining xromatogrammasi

4-rasmdagi xromatogrammaga ko‘ra gel tarkibida flavonoidlar rutin va kvvertsetin ishchi standart namunalarining (ISN) ushlanish vaqtiga mos ravishda 11,7 daqiqa rutin, 14,3 daqiqada kvvertsetin aniqlandi.

«Inflamdent» geli tarkibidagi lyuteolin flavonoidini aniqlashda, YuSSX uslubidan foydalanildi, tanlangan sharoit quyidagicha: Agilent Technologies (AQSH) firmasining, «Agilent 1200 series» markali, «Chemstation 09.03.a» programmasi bilan ta‘minlangan xromatograf, qurilma gradient nasosli va spektrofotometrik detektorli. Bo‘linish zarracha o‘lchami 5 mkm bo‘lgan Zorbax Eclipse C-18 sorbent bilan to‘ldirilgan 4,6×150 mm kolonkada amalga oshiriladi. Qo‘zg‘aluvchi faza 0,3% fosfat kislota (A) va atsetonitril (B), gradient rejimida bajarildi. Detektorlash L_{max} lyuteolin uchun mos ravishda xarakterli bo‘lgan, 272 nm to‘lqin uzunligida o‘lchanadi. Oqim tezligi 1 ml/daqiqaga teng bo‘lib, eritmaning yuborilish miqdori - 10 mkl. Xromatografiyalash harorati- 40°C. Tahlil olib borilish vaqti 25 daqiqa. Tahlil natijalari 5-6 rasmlarda keltirildi.





5-rasm. Lyuteolin ISN xromatogrammasi



6-rasm. Gel tarkibidagi lyuteolinning xromatogrammasi

6-rasmdagi xromatogrammaga ko‘ra gel tarkibida lyuteolin flavonoidi ishchi standart namunasining ushlanish vaqtiga mos ravishda 11,8 daqiqada aniqlandi.

Robinin flavonoidini YuSSX usulida aniqlashda quyidagicha sharoit tanlandi: xromatograf -Agilent Technologies 1200, qo‘zg‘aluvchi faza sifatida (gradientli rejim) A-atsetatli bufer pH=2,89 hamda B- atsetonitril tanlab olindi; kolonka – Zorbax Eclipse XDB C18, 150 x 3,0 mm zarrachalar o‘lchami 3,5 mkm; injeksiyaning miqdori – 20 mkl; qo‘zg‘aluvchan faza tezligi – 1,0 ml/daq; detektor – diod-matritsali, 254 nm to‘lqin uzunligida o‘lchandi. Tahlil natijalari 7-8-rasmlarda keltirildi.



7-rasm. Robinin ISN xromatogrammasi

8-rasm. Gel tarkibidagi robinining xromatogrammasi

8-rasmdagi xromatogrammaga ko'ra gel tarkibida robinin flavonoidi ishchi standart namunasining ushlanish vaqtiga mos ravishda 1,6 daqiqada aniqlandi. Flavonoidlarni miqdorini hisoblash natijalari 3-jadvalda keltirildi.


3-jadval

«Inflamdent» geli tarkibidagi flavonoidlarning miqdori


№	Flavonoid larning miqdori, mg/ml	Metrologik tavsifi						
		X _{oʻrt}	S ²	S	ΔX	ΔX _{oʻrt}	E %	E _{oʻrt} %
Rutin								
1	0,051 0,050 0,051 0,050 0,051	0,0506	0,00000030	0,0005477	0,0015227	0,0006810	3,01	1,35
Kvertsetin								
2	0,032 0,032 0,032 0,033 0,032	0,0323	0,00000021	0,0004604	0,0012800	0,0005724	3,96	1,77
Lyuteolin								
3	0,024 0,025 0,024 0,024 0,025	0,0246	0,00000030	0,0005477	0,0015227	0,0006810	4,19	2,08
Robinin								
4	0,032 0,033 0,033 0,034 0,034	0,03	0,00000007	0,000836	0,002325	0,001040	4,68	2,34

Keyingi izlanishlarda gel tarkibidagi biofaol moddalardan K₁ vitaminining miqdori o'rganildi, bunda tahlil uchun YuSSX usuli qo'llanildi. Xromatografiyalash UB spektrofotometrik detektor bilan ta'minlangan Agilent

Technologies firmasining 1200 series rusumli YuSSX da olib borildi. Qoʻzgʻaluvchi faza metanol:asetonitril (55:45); aniqlash toʻlqin uzunligi - 262 nm; mobil faza oqim tezligi - 1,0 ml/daqiqqa; harorat – xona harorati; yuboriluvchi namunaning hajmi - 20 µl; tahlil vaqti asosiy choʻqqining (K₁ vitamin) ushlanish vaqtidan kamida 3 barobar koʻp boʻlishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi quyidagi 9- va 10-rasmlarda keltirildi.



9-rasm. K₁ vitaminning ISN xromatogrammasi



10- rasm. Geldagi K₁ vitaminning xromatogrammasi

9 va 10-rasmlardan maʼlum boʻldiki K₁ vitamin standart namunasining ushlanish vaqti 9,14 daqiqani tashkil qildi, gelning xromatogrammasida ham mos ravishda ushlanish vaqti 9,31 daqiqada choʻqqi hosil boʻldi.

4-jadval

Gel tarkibidagi K₁ vitaminining tahlil natijalari va usulning metrologik tavsifi

Statistik koʻrsatkichi	Natijalar
Eng past qiymat	0,0167 mg/ml
Eng yuqori qiymat	0,0168 mg/ml
Oʻrtacha qiymat	0,01678 mg/ml
Standart chetlanish	0,000447
Variatsiya koeffitsienti	0,00278
Ishonch oraligʻi (R=95%)	2,78
Oʻrtacha nisbiy xatolik	2,3 %

4-jadvalda keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, gel tarkibida K₁ vitaminining miqdori 0,0168 mg/ml hamda uslubning oʻrtacha nisbiy xatolik esa 2,3 % tashkil etdi.

«Inflamdent» gelining biofaol moddalaridan aminokislotalar miqdoriy tahlili. Ularning miqdori YuSSX usulida aniqlandi, tanlangan xromatografiya sharoiti: zarrachalar hajmi 5 mk yoki shunga oʻxshash oktadesilsilil silikagel sorbent bilan toʻldirilgan 150 x 4,6 mm oʻlchamdagi kolonka; mobil faza: eluent A: 6,8 g natriy asetat trigidrat 1000 ml hajmli oʻlchov kolbasiga solinadi, 150 ml suvda eritiladi, suv bilan belgilangan belgigacha suyultiriladi va yaxshilab aralashtiriladi. Eluent B: metanol - asetonitril (3:2), mobil faza tezligi - 1,0 ml/min; toʻlqin uzunligi- 338 nm aniqlanadi; kolonka harorati - 40°C; yuboriladigan namunalar hajmi - 20 µl.

Gel tarkibidagi aminokislotalarning tahlil natijalari

№	Aminokislotalarning nomi	Gel tarkibidagi aminokislotalar miqdori mg/g
1	L-asparagin kislota	0,23998
2	L-serin	0,00356
3	L-glutamin kislota	0,00355
4	L- gistidin gidroxlorid monogidrat *	0,12648
5	L- arginin gidroxlorid *	0,00177
6	L-alanin	0,04185
7	L-tirozin	0,04478
8	L- sistin	0,01211
9	L- valin	0,00466
10	L- metionin *	0,00364
11	L- triptofan *	0,00088
12	L- fenilalanin *	0,01386
13	L- lizin gidroxlorid	0,06561
14	L-prolin	0,00843

*-almashinmaydigan aminokislotalar

5-jadvalda keltirilgan natijalariga ko'ra, gel tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar 5 ta, almashinadigan aminokislotalar esa 9 ta bo'lib shulardan eng ko'p miqdorda L-asparagin kislota mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqotlarni davom ettirib «Inflamdent» geli tarkibidagi makro va mikroelementlarni aniqlandi. «Inflamdent» gelining makro- va mikroelement tarkibi 6-jadvalda keltirilgan.


«Inflamdent» geli tarkibidagi makro-mikroelementlar miqdori

№	Element	Miqdori kg/g	№	Element	Miqdori kg/g
1	Litiy	0,205	6	Kalsiy	4697,1
2	Bor	7,0	7	Temir	74,64
3	Natriy	2506,0	8	Stronsiy	12,6
4	Magniy	272,6	9	Bariy	20,2
5	Alyuminiy	161,0	10	Rux	6,06
6	Kremniy	1265,5	11	Titan	10,9
7	Kaliy	270,7	12	Mis	9,2

6-jadvaldagi olingan ma'lumotlarga ko'ra gel tarkibida eng ko'p miqdorda elementlardan kalsiy va natriy tashkil qildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra gel tarkibida 5 ta makroelement, 7 ta mikroelement mavjudligi aniqlandi. Makroelementlardan kalsiy, natriy va kaliy miqdori yuqoriligi aniqlandi. Bu gelni gemostatik xususiyatini oshirishga yordam beradi.

Ishlab chiqilgan «Inflamdent» gelni stomatologiya amaliyotida qo'llanilishini inobatga olgan holda, tarkibidagi oshlovchi moddalar o'rganildi. Oshlovchi moddalar miqdori gall kislotasiga nisbatan YuSSX usuli yordamida aniqlandi. Tahlil natijalari 11, 12-rasmlar va 7-jadvalda keltirilgan.



11- rasm. Gall kislotasining (ISN) xromatogrammasi

12- rasm. Gel tarkibidagi gall kislotasining xromatogrammasi

12-rasmda keltirilgan xromatogrammada gall kislota cho‘qqisining ushlanish vaqti 2,1 daqiqani tashkil qilib, gall kislota standart namunasi xromatogrammasidagi (11-rasm) 2,03 daqiqadagi cho‘qqiga mos keldi.

7-jadval


«Inflamdent» geli tarkibidagi oshlovchi moddalarning tahlil natijalari va usulning metrologik tavsifi (n=5; P=95%; t (p,f)=2,78; f=4)

$X_i, \%$	$\bar{X}, \%$	F	S^2	S	S_x	$\pm \varepsilon, \%$
$X_1=0,0334$ $X_2=0,0334$ $X_3=0,0340$ $X_4=0,0345$ $X_5=0,0345$	0,0339	4	0,00000030	0,00055	0,00025	2,02


7-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra gel tarkibida gall kislotasining miqdori 0,0339 % ni, usulning xatoligi esa 2,02 % ni tashkil qildi.

Gel tarkibidagi vitaminlarni sifat va miqdorini aniqlashda zamonaviy tezkor yuqori aniqlikdagi YuSSX-MS usulidan foydalanildi. Bu usul o‘zining o‘ta aniqliligi va preparatlar tarkibidagi vitaminlarni massa zaryadlari bilan identifikatsiya qilish bilan boshqa fizik kimyoviy usullardan ajralib turadi.

Tayyorlangan tekshiriluvchi va standart namuna eritmalari alohida-alohida 20 mkl miqdorda uskunaga (Shimadzu, LC-MS 2020) yuborildi. Xromatografiya 16 daqiqa davomida olib borildi. Qo‘zg‘almas va yuqori bosim ostida qo‘zg‘aluvchi fazalarda ajralgan moddalar UB va mass detektorlar yordamida qayd etildi. YuSSX-MS usulining sharoitlari: qo‘zg‘almas faza Shim-pack XR-ODS II 75 Lx3 mm poralar o‘lchami 2,2 mkm, qo‘zg‘almas faza harorati 40°C, qo‘zg‘aluvchan fazaning oqim tezligi 0,230 ml/daqiqa, to‘lqin uzunligi 220 nm, tekshiriluvchi eritmaning yuborilish miqdori – 20 mkl, tekshiruv davomiyligi 22 daqiqa. MS usulining sharoitlari: ESI (musbat qutblilik), harorat 300°C, MS Ssan skanerlash turi, Nebulirer 1,3 ml/daqiqa, quruq gaz 10 l/daqiqa, massa zaryadlari 100-2000 m/z, dastur LabSolution va MassHunter. «Inflamdent» geli tarkibidagi vitaminlarning YuSSX-MS uslubidagi xromatogrammasi 13-14 rasmlarda keltirildi.



13– rasm. «Inflamdent» geli tarkibidagi suvda eriydigan vitaminlarning umumiy YuSSX-MS xromatogrammasi



14– rasm. «Inflamdent» geli tarkibidagi suvda erimaydigan vitaminlarning umumiy YuSSX-MS xromatogrammasi

8-jadval


«Gemostat» suyuq ekstrakti va «Inflamdent» geli tarkibidagi vitaminlarning miqdori

№	Vitamin nomi	Suyuq ekstrakt	«Inflamdent» geli	1 ml suyuq ekstraktidagi vitaminlar miqdori (mg)	1 g «Inflamdent» gel tarkibidagi vitaminlar miqdori (mg)
1	Vitamin D ₃	+	+	0,00035	0,000049
2	Vitamin E	+	+	0,00028	0,000033
3	Vitamin B ₈	+	+	0,032	0,00302
4	Vitamin B ₉	+	+	0,0024	0,00031
5	Vitamin B ₁	+	+	0,39	0,0375
6	Vitamin B ₂	+	+	0,325	0,0312
7	Vitamin B ₅	+	+	0,046	0,0038
8	Vitamin B ₆	+	+	1,35	0,1375
9	Vitamin A	+	+	0,0089	0,00096
10	Vitamin C	+	+	0,28	0,0454
11	Vitamin K ₁	+	+	2,45	0,2436
12	Vitamin PP	+	+	0,47	0,0428


8-jadvaldagi natijalarga ko‘ra «Gemostat» suyuq ekstrakti va «Inflamdent» geli tarkibida eng ko‘p miqdorda vitamin B₆ 1,35 va 0,01375 mg, K₁ vitamin esa 2,45 va 0,2436 mg ni tashkil qildi.

To‘rtinchi bob «*Gemostat suyuq ekstrakti asosida olingan polimer plyonka ko‘rinishidagi BFQ ning sifatini baholash*» deb nomlangan. Bu bobda polimer plyonka BFQ tarkibidagi flavonoidlar va xlorgeksidinni YuQX va YuSSX tahlil usullarini ishlab chiqishning tadqiqot natijalari keltirilgan.

Flavonoidlarni identifikatsiya qilish uchun gelga taklif qilingan YuQX usulidan foydalanildi. Polimer plyonka ko‘rinishidagi BFQ tarkibidagi asosiy ta’sir etuvchi moddalardan biri bu xlorgeksidin biglyukonat bo‘lib, uni aniqlash uchun YuSSX usuli ishlab chiqildi. Xromatografiya Shimadzu (Yaponiya) firmasining Shimadzu LC 2030 Nexera markali suyuqlik xromatografida «LabSolution 10.02.b», dasturiy ta’minotli, gradient nasos va spektrofotometrik detektor yordamida amalga oshirildi. Ajratish ZORBAX Eclipse zarrachalar kattaligi 3,5 mikronli sorbenti bilan to‘ldirilgan, 3,0 x 150 mm o‘lchamdagi kolonkada amalga oshirildi. Qo‘zg‘aluvchi faza 1,0 % li muz sirka kislotasi (A) va atsetonitril (B) gradient rejimida amalga oshirildi. Aniqlash navbat bilan L_{max} xlorheksidin biglukonatga hos bo‘lgan, 254 nm to‘lqin uzunligida olib borildi. Eluentning oqim tezligi 1 ml/daqiqa, yuboriluvchi namunaning hajmi 10 mkl. Xromatografiya harorati 40°C, tahlilning davomiyligi 20 daqiqa. Preparatdagi xlorgeksidin biglukonatni aniqlash uchun, parallel ravishda ularning ISN eritmalari xromatografdan o‘tkaziladi. Olingan natijalar 15 va 16 -rasmlarda keltirildi.



15-rasm. Xlorgeksidin ISNning xromatogrammasi



16-rasm. Plyonka tarkibidagi xlorgeksidin xromatogrammasi

15-rasmida keltirilgan xromatogrammadagi xlorgeksidin biglyukonat standart eritmasining ushlanish vaqti 2,48 daqiqani, plyonka (16-rasm) tarkibidagi xlorgeksidin biglyukonatni ushlanish vaqtiga 2,50 ga mos kelishi aniqlandi.


9-jadval

Polimer plyonka ko‘rinishidagi BFQ tarkibidagi xlorgeksidin tahlil natijalari va usulning metrologik tavsifi (n=5; P=95%; t(p,f)=2,78; f=4)


$X_i, \%$	$\bar{X}, \%$	F	S^2	S	S_x	$\pm \varepsilon, \%$
$X_1=0,0020$ $X_2=0,0020$ $X_3=0,0020$ $X_4=0,0021$ $X_5=0,0021$	0,00204	4	0,00000030	0,0000547	0,0000245	3,34%

9-jadvaldagi natijalarga ko‘ra xlorgeksidin biglyukonatni miqdori 0,002 %, o‘rtacha nisbiy xatolik esa 3,34 % ni tashkil qildi.

Plyonka tarkibidagi flavonoidlarni miqdori YuSSX usulida aniqlandi. Olingan natijalar 17 va 18 -rasmlarda keltirilgan.



17- rasm. Rutin ISN xromatogrammasi



18- rasm. Plyonka xromatogrammasi

17 va 18 -rasmlarda keltirilgan natijalarga ko'ra gelda rutin flavonoidining ushlanish vaqti mos ravishda 10,39 daqiqani tashkil qildi. Rutin miqdori 0,047 mg/g, uslubning o'rtacha xatoligi esa rutinga nisbatan 2,68 % ni tashkil qildi.

Beshinchi bobda «*Inflamdent gelini standartlash*» deb nomlanib unda asosiy ta'sir etuvchi moddalardan K₁ vitaminini YuSSX usulining validatsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan. Validatsiya natijalari 10-jadvalda keltirildi.

10-jadval

K₁ vitaminni YuSSX usulining validatsiyasi

No	Parametrlar	Baholash kriteriyasi
1	Usulning xususiyligi	Tasdiqlandi
2	Usulning takrorlanuvchanligi	RSD = 0.93463%
3	Usulning aniqliligi	NMT (dan ortiq emas) $\pm 1\%$
4	Usulning chiziqliligi	Korrel – 0.99
5	Usulning qo'llanilish sohasi	$\pm 1\%$
6	Usulning barqarorligi	± 1 nm

10-jadvalda keltirilgan validatsiya natijalariga ko'ra K₁ vitamini YuSSX usulining yaroqliligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalari asosida farmakopeya maqolasi ishlab chiqildi. Farmakopeya maqolasining qisqacha ta'rif va olingan natijalar 11-jadvalda keltirilgan.

“INFLAMDENT” GELINING SPETSIFIKATSIYASI

Ko'rsatkichlar	Usullar	Me'yor
Tasvirlanishi	Vizual	Och- sariq rangdan jigarranggacha, o'ziga xos hidli, shaffof bo'lmagan gel
Chinligi Flavonoidlar	YuQX	UB nurida plastinka ko'rilganda, Rf 0,52 (rutin) va 0,70 ga teng bo'lgan (kvertsetin) atrofida ikkita dog'lar paydo bo'lishi kerak.
K ₁ vitamin	YuQX	UB nurda 254 nm ko'rilganda binafsha rangli dog' K ₁ vitamin paydo bo'lishi kerak (Rf taxminan 0,43).
Qadoq ichidagi massasi	Gravimetriya	19,0 g. dan 21,0 g. gacha
pH	Potensiometrik	3,5 dan 5,5
Zichlik	Og'irligi bo'yicha	1,050 - 1,060 g/ml
Zarrachalar hajmi va bir xilligi	Mikroskopik	Gel bir xil, zarrachalarsiz bo'lishi kerak
Mikrobiologik tozaligi	O'z DF 5.1.8. bo'lim	1g preparatda umumiy aerob bakteriyalar soni 10 ⁴ KOE dan oshmasligi kerak; 1g preparatda zamburug'larning umumiy soni 100 KOE dan ortiq bo'lmashligi kerak; 1g preparatda Enterobakteriya va boshqa guruh bakteriyalari 100 KOE dan ortiq bo'lmashligi kerak; 1g preparat tarkibida <i>Escherichia coli</i> bo'lmashligi kerak; 25g preparatda <i>Salmonella</i> bo'lmashligi kerak; 1 g preparat tarkibida <i>Pseudomonas aeruginosa</i> va <i>Staphylococcus aureus</i> bakteriyalar bo'lmashligi kerak;
Miqdoriy tahlil Flavonoidlar (Rutin) Vitamin K ₁	SF, YuSSX (YuSSX)	±0,04 % kam bo'lmashligi kerak ±0,015 % kam bo'lmashligi kerak
Qadoqlanishi	Yuqori zichlikdagi polietilen naychada 20 g gel. 1 tuba, foydalanish bo'yicha ko'rsatma bilan birga karton qutiga joylashtiriladi	
Markirofkalash	MH ga muvofiq	
Saqlash	Quruq joyda, 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlanadi	
Yaroqlilik muddati	2 yil	

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqilgan «Inflamdent» gel sifatiga qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob beradi.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, «DENTAFILL PLYUS» MChJ bilan hamkorlikda «Inflamdent» geliga KFM loyihasi ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga, tibbiyot amaliyotida qo'llashga ruxsat olish uchun taqdim etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, tibbiyotda

stomatologiya amaliyoti uchun plyonka BFQ uchun me'yoriy sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va texnologik yo'riqnoma tasdiqlangan.

XULOSA

1. O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorini o'rganish va tahlil qilish natijalariga asosan stomatologiya amaliyotida qo'llaniladigan dori vositalari asosan chet elda ishlab chiqarilayotganligi ma'lum bo'ldi va mahalliy dorivor o'simlik xomashyolari, jumladan achchiq toron, qush toron va ikki uyli gazanda o'simliklaridan olingan «Gemostat» suyuq ekstrakti asosida yallig'lanishga qarshi, gemostatik «Inflamdent» geli va antimikrob ta'sirga ega polimer plyonka ko'rinishidagi biologik faol qo'shimcha ishlab chiqish dolzarb ekanligi isbotlandi.

2. «Inflamdent» geli tarkibidagi biofaol moddalar, jumladan flavonoidlar, oshlovchi moddalar, aminokislotalar va makro-mikroelementlar mavjudligi YuSSX, YuSSX-MS, ISP-MS kabi samarali zamonaviy tahlil usullari yordamida isbotlandi.

3. «Inflamdent» gelini standartlash uchun zarur bo'lgan chinlik va sifat ko'rsatkichlarining ishonchli mezonlari tavsiya etildi. Standartlashda chinligi va miqdori rutinga nisbatan flavonoidlar yig'indisi bo'yicha olib borildi hamda me'yoriy hujjatlarda uning miqdori $\pm 0,04$ mg/g etib belgilandi.

4. «Inflamdent» polimer plyonka ko'rinishidagi BFQ sifatini baholashning instrumental tahlil usullari ishlab chiqildi hamda sifat ko'rsatkichlari bo'yicha tegishli me'yorlari ya'ni flavonoidlar miqdori $\pm 0,04$ mg/g va xlorgeksidin biglyukonat $\pm 0,00204$ mg/g etib belgilandi.

5. Mahalliy dorivor o'simliklar asosidagi «Inflamdent» geli va polimer plyonka shaklidagi biologik faol qo'shimchaning yaroqlilik muddati va saqlanish sharoiti tabiiy eskirish usulida aniqlanib, 2 yil deb belgilandi.

6. «Inflamdent» gel dori shakli uchun korxona farmakopeya maqolasi ishlab chiqildi va tibbiyot amaliyotida ruxsat etilishi uchun O'zR SSV «Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi Markazi» Davlat muassasasiga taqdim etildi. «Inflamdent» polimer plyonka (BFQ) uchun Texnik shartlar (Ts 27326037-006:2023) hamda Texnologik yo'riqnoma (TI 27326037-006:2023) O'zR sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 04/30.12.2019. FAR.32.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ГУЛЯМОВА ДУРДОНА РУСТАМ КИЗИ

**СТАНДАРТИЗАЦИЯ ГЕМОСТАТИЧЕСКОГО ГЕЛЯ И
ПОЛИМЕРНОЙ ПЛЁНКИ, ПРИМЕНЯЕМОЙ В
СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ**

15.00.02 – фармацевтическая химия и фармакогнозия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент -2024

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В.2023.1.PhD/Far100.

Диссертация выполнена в Ташкентском фармацевтическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.pharmi.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Юнусходжаева Нодира Абдулхамитовна
доктор фармацевтических наук, профессор

Официальные оппоненты Юлдашев Закиржон Абидович
доктор фармацевтических наук, профессор

Нишанбаев Сабир Зарипбаевич
доктор химических наук, ведущий научный сотрудник

Ведущая организация: Институт биоорганической химии имени
О.С. Содикова А.Н. Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «3» октября 2024 г в 13⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 при Ташкентском фармацевтическом институте (адрес: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38, факс: (99871) 256-45-04, e-mail: www.pharmi.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Ташкентского фармацевтического института (регистрационный номер 59) по адресу: 100015, г. Ташкент, Мирабадский район, ул. Айбека, 45. Тел.: (99871) 256-37-38.

Автореферат диссертации разослан «10» сентября 2024 года
(Реестр протокола № 59 от «10» сентября 2024 года)



Зини

К.С. Ризаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.м.н.

Ё.С. Кариева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.фарм.н., профессор

Ф.Ф. Урманова
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, д. фарм.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Согласно данным, представленным в глобальном отчете Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) о стоматологических заболеваниях (2022 г.), число людей с заболеваниями полости рта во всем мире составляет почти 3,5 миллиарда человек и 3/4 из них живут в странах со средним уровнем дохода. В связи с этим, приобретает значение расширение ассортимента лекарственных средств и биологически активных добавок, получаемых на основе экономически выгодного растительного сырья, доказательство их эффективности и безвредности, а также их внедрение в производство.

В настоящее время в мире ведутся научные исследования по изучению лекарственных растений, сохраняющих различные биологически активные вещества, по определению их химического состава с помощью современных физико-химических методов, по очистке от посторонних веществ, разработке методов оценки их качества. В связи с этим из природного сырья, в частности лекарственных растений, выделяют биологически активные вещества, на основе которых лечат стоматологические заболевания (пародонтит, гингивит, стоматит и др.). Особое внимание уделяется решению вопросов разработки, стандартизации, обеспечения стабильности технологии различных лекарственных форм, широко применяемых в медицине.

В рамках комплексных реформ в развитии фармацевтической отрасли в нашей республике достигаются определенные результаты по организации плантаций с целью выращивания отечественных лекарственных растений, их переработке, производству лекарственных средств и биологически активных добавок, не уступающих зарубежным аналогам. Во втором приложении новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы, в пункте 85 определены такие важные задачи, как: «Увеличение объемов производства продукции фармацевтической промышленности в 3 раза и доведение уровня обеспеченности местного рынка до 80%....».¹ В связи с этим важное значение приобретает проведение научных исследований по дальнейшему развитию отечественного фармацевтического производства в нашей республике, расширению производства оригинальных импортозамещающих препаратов, увеличению номенклатуры используемых в медицине биологически активных добавок.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных решениями и иными нормативными правовыми актами, относящимися к фармацевтической отрасли, такими как: Указ Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года УП-№ 55 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022-2026 годах», ПП-№ 4310 от 6 мая 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и фармацевтического образования и науки», а также ПП-№ 4901 от 26 ноября 2020 г. «О мерах по

